(4). Dr.Soumita Mitra. Virginia Woolf: A modern feminist writer in 20th century world. International Journal of Humanities and Social Science Research www.socialsciencejournal.in ISSN: 2455-2070 Received: 14-02-2026, Accepted: 16-03-2026, Published: 31-03-2026 Volume 12, Issue 1, 2026, p. 444–446.
(5). https://www.ebsco.com/research-starters/history/virginia-woolf
(6). Stylistic Analysis of Mrs. Dalloway And To The Lighthouse. https://www.scribd.com/

Mirzaev Rustamjon Mahmudovich (Andijon davlat Texnika instituti katta o'qituvchisi, Andijon shahri, O'zbekiston Respublikasi; e-mail: mirzaevrustamjon1970@gmail.com)

CHINGIZ AYTMATOV ASARLARINI RUS TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDAGI USLUBIY VA LINGVOMADANIY MUAMMOLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Chingiz Aytmatov asarlarining rus tilidagi matnlaridan o'zbek tiliga o'girilishi jarayonidagi asosiy tarjima muammolari tahlil qilinadi. Ikki tilning tizimli-struktur xususiyatlari, milliy-madaniy bo'yoqdor so'zlar reproduksiyasi va muallif individual uslubini saqlash masalalari qiyosiy-tipologik metod asosida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *badiiy tarjima, Chingiz Aytmatov, realiyalar, transformatsiya, lingvomadaniyat, uslubiy mutanosiblik, rus tili, o'zbek tili.*

СТИЛИСТИЧЕСКИЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ПРОИЗВЕДЕНИЙ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА С РУССКОГО ЯЗЫКА НА УЗБЕКСКИЙ

Аннотация. *В данной статье анализируются основные переводческие проблемы, возникающие в процессе перевода произведений Чингиза Айтматова с русского языка на узбекский. На основе сравнительно-типологического метода освещаются вопросы системно-структурных особенностей двух языков, репродукции национально-культурной маркированной лексики (реалий) и сохранения индивидуального авторского стиля.*

Ключевые слова: *художественный перевод, Чингиз Айтматов, реалии, трансформация, лингвокультурология, стилистическое соответствие, русский язык, узбекский язык.*

STYLISTIC AND CULTURAL LINGUISTIC PROBLEMS IN THE TRANSLATION OF CHINGIZ AITMATOV'S WORKS FROM RUSSIAN INTO UZBEK

Annotation. *This article analyzes the key translation challenges encountered in the process of rendering Chingiz Aitmatov's works from Russian into Uzbek. Utilizing a comparative-typological approach, the study explores the structural and systemic differences between the two languages, the reproduction of culture-specific lexis (realia), and the preservation of the author's individual style.*

Keywords: *literary translation, Chingiz Aitmatov, realia, transformation, cultural linguistics, stylistic correspondence, Russian language, Uzbek language.*

Kirish. Jahon adabiyoti durdonalarini milliy tilga o'girish nafaqat madniyatlararo almashinuv vositasi, balki milliy tarjimashunoslik maktabining salohiyati hamda tilshunoslik fanining rivojlanish darajasini belgilovchi bosh mezonlardan biridir. Badiiy tarjima o'zga xalqning ijtimoiy-madaniy tafakkur mahsulini milliy lison qobig'iga ko'chirish orqali ona tilining lisoniy-estetik imkoniyatlarini boyitishga xizmat qiladi. Bu borada qirg'iz milliy olami, o'ziga xos sharqona falsafa va umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan buyuk adib Chingiz Aytmatov asarlarining o'zbek tilidagi talqinlari va ularning o'zbek adabiy muhitiga ta'siri alohida fundamental ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, adib o'z asarlarini ham qirg'iz, ham rus tillarida parallel ravishda ijod qilgan bo'lsa-da, o'zbek tilidagi amaldagi tarjimalarning salmoqli qismi aynan rus tilidagi mualliflik matnlari asosida amalga oshirilgan. Ushbu holat tilshunoslik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan o'ta murakkab, ikki bosqichli lisoniy transformatsiyalar tizimini yuzaga keltiradi. Bir tomondan, tarjima jarayonida fleyktiv (rus tili) va agglutinativ (o'zbek tili) til tizimlarining tub strukturaviy-tipologik farqlari o'rtasidagi muqarrar to'qnashuvlar namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, vositachi til (rus tili) qobig'iga o'ralgan sof turkiy/qirg'izona milliy ruhni, etnomadaniy muhitni o'zbek tilida qayta tiklashning o'ziga xos konseptual muammolari yuzaga keladi. Binobarin, ruscha matnda berilgan sintaktik murakkabliklar, passiv konstruksiyalar va lisoniy o'ziga xosliklar o'zbek tilining ichki qonuniyatlariga ko'chirilganda, shunchaki so'zma-so'z muqobil almashtirish usuli o'zini oqlamaydi. Tarjimondan nafaqat ikki til grammatikasini chuqur bilish, balki vositachi til ortidagi qirg'iz dunyoqarashi kodlarini aniq dekodlash va ularni o'zbek o'quvchisi uchun lisoniy-uslubiy va pragmatik jihatdan mutanosib tarzda yetkazib bera olish mahorati talab etiladi. Mazkur tadqiqot aynan ushbu uslubiy hamda lingvomadaniy to'qnashuvlarni tahlil qilishga qaratilganligi bilan dolzarb xarakterga egadir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Badiiy matnlarni bir tildan ikkinchi tilga o‘girish, undagi milliy kolorit, uslubiy va lingvomadaniy xususiyatlarni saqlab qolish muammolari uzoq yillardan buyon tilshunos va tarjimashunos olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Chingiz Aytmatov asarlarining rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilinishi jarayonini baholash uchun, avvalo, umumiy tarjima nazariyasi, lingvokulturologiya va qiyosiy uslubiyot sohasidagi mavjud ilmiy qarashlarni tahlil qilish lozim. Badiiy tarjimaning umumiy nazariy asoslari, matn ekvivalentligi va tarjima transformatsiyalari L.S.Barxudarov, V.N. Komissarov va Y.I.Retsker [4] kabi olimlarning tadqiqotlarida tubdan o‘rganilgan. Xususan, V.N. Komissarov badiiy matn tarjimasida nafaqat semantik moslik, balki pragmatik va uslubiy mutanosiblik ham bosh mezon ekanligini ta’kidlaydi. Milliy-madaniy bo‘yoqdor so‘zlar, ya’ni, realiyalarni tarjima qilish ti-zimi esa S.Vlaxov va S.Florin tomonidan klassifikatsiya qilinib, ularni qayta ishlashning asosiy yo‘llari (transkripsiya, kalkalash, tasviriy tarjima va b.) belgilab berilgan. O‘zbek tarjimashunoslik maktabining shakllanishi va rivojlanishida G‘aybulla Salomovning xizmatlari beqiyosdir. Olim o‘zining «Tarjima tashvishlari», «Til va tarjima» kabi fundamental asarlarida o‘zbek tilining badiiy imkoniyatlari, milliy mafkura va urf-odatlarni aks ettiruvchi birliklarni boshqa tillardan o‘girishdagi o‘ziga xos qonuniyatlarni ilmiy asoslab bergan. Ayniqsa, turkiy tillar muhitidagi madaniy yaqinlikning tarjima jarayoniga ta’siri borasidagi qarashlari Ch.Aytmatov ijodini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Keyinchalik, Q.Musayev o‘zining «Tarjima nazariyasi asoslari» monografiyasida badiiy uslub sirlari va milliy ruhni ifodalashda til tizimlarining tafovutlarini qiyosiy tahlil qilgan. Olim badiiy tarjimada so‘zma-so‘zlikdan qochish va matnning estetik vazifasini tiklash zarurligini uqdiradi. Shuningdek, I.G‘afurov («Tarjima nazariyasi») va N.Komilov [1] singari tadqiqotchilarning ishlarida ham badiiy tarjimaning lingvopoetik muammolari, muallifning individual uslubini saqlash masalalari keng yoritilgan. Bevosita Chingiz Aytmatov asarlarining tarjimasi xususida so‘z ketganda, adib asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan o‘girgan A.Muxtor, I.G‘afurov, S.Rahimov kabi tarjimonlarning amaliy tajribalari tahlil obyekti bo‘lib xizmat qiladi. Biroq Ch.Aytmatov prozasining rus tilidagi variantlaridan o‘zbek tiliga o‘girilishidagi lingvomadaniy va uslubiy to‘qnashuvlar, vositachi tilning salbiy va ijobiy ta’siri mahalliy tilshunoslikda hali to‘liq va tizimli ravishda monografik darajada tadqiq etilmagan. X.Karimov va M.Bazarbayeva kabi olimlarning ayrim maqola va tezislarida Aytmatov asarlaridagi frazeologizmlar yoki personajlar nutqi xususiyatlari qisman o‘rganilgan bo‘lsa-da, tizimli-struktur va lingvokulturologik aspektlar kompleks yondashuvni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tarixiy-taqqosloviy, lingvistik-analitik hamda deskriptiv usullar qo‘llanildi. Rus va o‘zbek tillari turli til oilalariga (hind-yevropa va turkiy tillar oilasi) mansubligi sababli, Ch.Aytmatov matnlaridagi uzun, murakkab qo‘shma gaplar, sifatdosh va ravishdosh oborotli tuzilmalarni o‘zbek tiliga aynan ko‘chirish imkonsiz. Rus tilidagi so‘z tartibining nisbatan erkinligi va gap bo‘laklarining joylashuvi mantiqiy urg‘uni ifodalasa, o‘zbek tilida kesimning qat’iy ravishda gap oxirida kelishi tarjimondan sintaktik transformatsiyalarni talab qiladi. Masalan, adibning “Issiqko‘l kuychisi” yoki “Oq kema” asarlaridagi lirik chekinishlar va tabiat tasvirlari rus tilida passiv konstruktlar (stradatelniy zalog) bilan berilgan o‘rinlarda, o‘zbek tiliga o‘girishda ularni faol nisbatga o‘tkazish yoki gapni bir nechta sodda gaplarga parchalash zarurati tug‘iladi. Aks holda, o‘zbekcha matnda sun’iylik va uslubiy g‘alizlik yuzaga keladi.

Tahlil va natijalar. Eng qiziqarli va murakkab muammolardan biri milliy-madaniy komponentga ega bo‘lgan so‘zlar (realiyalar, urf-odat nomlari) transformatsiyasidir. Ch.Aytmatov rus tilida yozganda ham qirg‘iz turmush tarziga xos so‘zlarni (masalan: *ayil, qamchi, kumis, uloq/kozlodranye*) ishlatgan yoki ularni rus tili unsurlari orqali tasvirlagan. Tarjimon ruscha matndagi “kozlodranye” so‘zini ko‘rganda, uning zamirida turkiy xalqlarga xos “uloq/ko‘pkari” o‘yini turganini anglashi va o‘zbek kitobxoni uchun tabiiy bo‘lgan ekvivalentni tanlashi lozim. Ammo ba’zi hollarda rus tilidagi izohli tasvirlar tarjimada ham so‘zma-so‘z qaytarilsa, asl turkiy kolorit yo‘qolishi mumkin. Shu bois rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda qirg‘iz va o‘zbek tillarining mushtarak tarixiy-madaniy ildizlarini hisobga olish, ya’ni, “ruscha qobiq”ni yorib o‘tib, asl milliy mazmunni tiklash tarjimonning asosiy vazifasiga aylanadi. Aytmatov prozasi chuqur falsafiylik, mifologik syujetlar (masalan, "Bug‘u ona" afsonasi) va kuchli metaforizm bilan ajralib turadi. Rus tilidagi frazeologik birliklar va adib tomonidan yaratilgan okkazionalizmlar (yangi so‘zlar) o‘zbek tiliga o‘girilganda, ko‘pincha, semantik va uslubiy yo‘qotishlarga uchraydi. Rus tilidagi obrazli ifodalarni o‘zbek tilidagi muqobil maqol yoki idiomalar bilan almashtirishda kontekustal mutanosiblikka juda ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur.

Xulosa. Chingiz Aytmatov asarlarini rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayoni va matnlar ustida olib borilgan lingvistik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli hamda estetik jihatdan mukammal badiiy tarjima mahsulini yaratish uchun faqatgina rus va o‘zbek tillari grammatikasini mukammal bilish,

lug‘aviy birliklarning muqobillarini mexanik tarzda almashtirish aslo kifoya qilmaydi. Zero, badiiy tarjima shunchaki tillararo konversiya emas, balki madaniyatlararo muloqot va konseptual ko‘chish hodisasidir. Olib borilgan tahlillar asosida xulosa qilinganda, birinchi navbatda, tarjimondan yuksak lingvomadaniy kompetensiya talab etilishi ayon bo‘ladi. Chunki Aytmatov ijodida o‘ziga xos o‘rin tutgan „ikki bosqichli filtratsiya“, ya’ni, qirg‘iz xalqining milliy tabiati va dunyoqarashining rus tili vositasida ifodalanishi, o‘zbek tarjimonidan vositachi tilda berilgan matn zamiridagi tub turkiy konnotatsiyalarni to‘g‘ri dekodlashni taqzo etadi. Tarjimon ruscha qobiq ichidagi milliy kodlarni aniq ilg‘ab olgandagina, o‘zbek tilida ularning sun’iylikdan xoli, tabiiy va jonli muqobillarini qayta tiklashga muvaffaq bo‘ladi.

Shu bilan birga, tarjima jarayonida fleyktiv va agglutinativ tillarning tipologik farqlaridan kelib chiquvchi tizimli-struktur muammolar ham ko‘zga tashlanadi. Rus tiliga xos bo‘lgan, murakkab sintaktik qurilmalar, xususan, sifatdosh va ravishdosh oborotlari bilan kengaygan hamda intonatsion yukka ega bo‘lgan gaplarni o‘zbek tilining ichki qonuniyatlari, tabiati va lisoniy jozibasiga moslab uslubiy jihatdan qayta ishlash zarurati tug‘iladi. Bu bosqichda sintaktik moslashuv usullarini to‘g‘ri qo‘llash matnning dinamikasini oshiradi va o‘zbek kitobxonining asarni xuddi o‘z ona tilida yozilgandek qabul qilishini ta’minlaydi. Nihoyat, bugungi zamonaviy tarjimashunoslik istiqboli nuqtayi nazaridan qaraganda, qiyosiy tahlil zarurati alohida dolzarblik kasb etadi. Kelajakda Aytmatov asarlarining yangi avlod tarjimalarini yaratishda, tarjima bazasi sifatida faqatgina ruscha mualliflik matni bilan cheklanib qolmasdan, imkon qadar qirg‘izcha asl nusxalar va variantlar bilan qiyosiy-tekshiruv tahlillarini olib borish lozim. Bunday keng ko‘lamli va parallel tadqiqot usuli matndagi vositachi til tufayli yuzaga kelgan lisoniy yoki uslubiy siljishlarni bartaraf etishga hamda tarjima sifatini yanada yuqori, sifatli akademik bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Aytmatov Ch. Asarlar to‘plami (tarjimonlar: A.Muxtor, I.G‘afurov va b.). Toshkent, “Sharq”, 1998.

(2). G‘afurov I. Tarjima nazariyasi. Toshkent, “Tafakkur”, 2012.

(3). Salomov G‘. Tarjima tashvishlari. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.

(4). Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, “Fan”, 2005.

(5). Salomov G‘. Til va tarjima. Toshkent, “Fan”, 1966.

(6). Комиссаров В.Н. Общая теория перевода. Москва, “ЧеРо”, 1999.

(7). Бархударов Л.С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). Москва, Международные отношения, 1975.

(8). Kamilov N. Tarjima mahorati. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979.

(9). Safarov Sh. Lingvokulturologiya. Toshkent, “Akedemnashr’, 2021.

(10). Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Toshkent, “Fan”, 2013.

(11). Bazarbayeva M. Badiiy tarjimada milliy kolorit muammolari (Ch.Aytmatov asarlari misolida). Filol. fan. nomz. diss. avtoreferati, Toshkent, 2004.

Oripov Alijon Olim o‘g‘li (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruv akademiyasi oliy ta’limdan keyingi ta’lim maktabi bosh ilmiy xodimi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi; alijonoripovvv@gmail.com)

BADIIY TARJIMADA ADEKVATLIKNI TA’MINLASHDA LINGVOMADANIY YONDASHUV

Annotatsiya. *Mazkur maqolada badiiy tarjimada adekvatlikni ta’minlashning lingvomadaniy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotda badiiy asar tarjimasida milliy-madaniy mazmunni, obrazlilikni va pragmatik ma’noni qayta yaratish bilan bog‘liq nazariy hamda amaliy masalalar tahlil qilinadi. Realiyalar, frazeologik birliklar, soxta ekvivalentlar va kognitiv tafovutlarning tarjima sifatiga ta'siri qiyosiy-chog‘ishtirma hamda kognitiv-semantik yondashuvlar asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari badiiy tarjimada adekvatlik faqat lug‘aviy ekvivalentlik bilan belgilanmasligini, balki asliyatning milliy ruhi, madaniy mazmuni, kommunikativ maqsadi va kitobxon ongida shakllanadigan tasavvurlarni imkon qadar to‘liq qayta yaratishga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shuningdek, lingvomadaniy nomuvofiqliklar va semantik tafovutlar tarjimada mazmuniy yo‘qotishlar hamda kognitiv dissonansni yuzaga keltirishi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy tarjima, realiyalar, frazeologizmlar, soxta ekvivalentlar, milliy kolorit, adekvatlik, lingvokulturologiya.*

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ОБЕСПЕЧЕНИЮ АДЕКВАТНОСТИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПЕРЕВОДА

Аннотация. *В данной статье исследуются лингвокультурологические основы обеспечения адекватности художественного перевода. Рассматриваются теоретические и практические воп-*